



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI

Baxridinova Shaxnozaxon Shukurullayevna

Qo'qon universiteti Andijon filiali "Iqtisodiyot va moliya" kafedrasi o'qituvchisi

Email: shaxnozamustafa@gmail.com

Dumarova Surayyo Dilshodbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali sirtqi ta'lim "Iqtisodiyot" yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Email: dumarovasurayyoxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda bank kreditlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar bank kreditlari kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi hamda ushbu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, bank kreditlari, iqtisodiy rivojlanish, moliyalashtirish, tadbirkorlik, imtiyozli kreditlar.

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль и значение банковских кредитов в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. В исследовании использованы методы статистического анализа, сравнения и обобщения. Результаты показали, что банковские кредиты являются важным фактором обеспечения финансовой стабильности малого бизнеса, и разработаны практические предложения по дальнейшему развитию этой области.



Ключевые слова: малый бизнес, банковские кредиты, экономическое развитие, финансирование, предпринимательство, льготные кредиты.

Annotation. This scientific article analyzes the role and importance of bank loans in the development of small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan. The research used statistical analysis, comparison and generalization methods. The results showed that bank loans are an important factor in ensuring the financial stability of small businesses, and practical proposals were developed for the further development of this area.

Keywords: small business, bank loans, economic development, financing, entrepreneurship, preferential loans.

Kirish

Hozirgi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin egallaydi. Kichik biznes aholining bandligini ta‘minlash, daromadlarni oshirish hamda ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohaning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liq.

Shu sababli, bank kreditlarining kichik biznes rivojiga ta‘sirini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi — bank kreditlarining kichik biznes faoliyatidagi ahamiyatini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kichik biznes — bu xodimlar soni kam, ishlab chiqarish hajmi kichik bo‘lgan va odatda mahalliy bozorga xizmat qiladigan tadbirkorlik faoliyatidir. Asosiy xususiyatlari:

- Odamlar soni kam (odatda 1–50 kishi)
- Boshlang‘ich kapitali kam
- Oila yoki yakka tadbirkorlik asosida ishlaydi
- Mahalliy bozorga yo‘naltirilgan



→ Tez moslashuvchan. Yani bu xo'jalik yurituvchi subyektning bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga qisqa vaqt ichida moslashish qobiliyatidir. Agar bozorda talab va taklif o'zgarsa tez javob qaytara oladi. Chunki qarorni raxbar o'zi xal qiladi.

Misollar:

Do'kon, oshxona, novvoyxona, tikuvchilik sexi, go'zallik saloni, fermer xo'jaligi shu kabilar kiradi.

Katta biznes — bu yirik ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi, ko'p xodimga ega va katta moliyaviy resurslar bilan ishlaydigan korxonalardir. Asosiy xususiyatlari:

- Xodimlar soni juda ko'p (yuzlab, minglab)
- Kapitali katta
- Yirik zavod va fabrikalar
- Ichki va tashqi bozorga yo'naltirilgan
- Murakkab boshqaruv tizimi
- Tez moslashuvchanlik yo'q. Sababi katta zavod va kompaniyalarda boshqaruv tizimi ko'p bo'ladi. Shuning uchun qarorlar sekin qabul qilinadi, ko'p bosqichli ruxsatlar bor, o'zgarish kiritish ko'p vaqt oladi.

Misollar: Avtomobil zavodlari, neft-gaz kompaniyalari, yirik banklar, telekommunikatsiya kompaniyalari

Demak Katta biznesdan ko'ra kichik biznes axoliga ko'proq afzalroq ekan. Sababi iqtisodiyotda aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Albatta Katta biznes ham davlatga katta foyda, investitsiyalar olib keladi. Biroq zarar ko'rsa Soliq tushumlari keskin kamayadi.

Katta biznes davlat byudjetiga yirik soliq to'lovchi. Bitta yirik korxona zarar ko'rsa → milliardlab tushum kamayadi

Kichik biznesda esa zarar mayda-mayda bo'lib tarqaladi.



→ Ishsizlik birdan oshib ketadi

Katta korxonada yuzlab yoki minglab ishchi bo'ladi

Korxona qisqarsa yoki yopilsa, ko'p odam birdan ishsiz qoladi

- Bu ijtimoiy bosimni kuchaytiradi.

- YAIM va eksport pasayadi. Katta biznes YAIM va eksportning asosiy qismini beradi. U zarar ko'rsa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tushadi.

- Zanjirli ta'sir (multiplikativ effekt) tasir kuchayadi. Yani katta korxona bilan bog'liq ko'plab kichik firmalar ham zarar ko'radi. Jumladan: yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar ishsiz qoladi.

Kichik biznes zarar ko'rsa-chi?

- Davlat uchun zarari nisbatan kichikroq:

Har biri kam soliq to'laydi. Bu soliq tushumiga unchaklik tasir qilmaydi. Bittasi yopilsa, boshqasi o'rnini tez bosadi.

Kichik biznesning samarali faoliyat yuritishining eng muximi moliyaviy resurslarning mavjudligiga bog'liq. Boshqaruv sifati, bozor talabi, kadrlar salohiyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati, infratuzilma rivoji hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Eng muxim bo'lgan moliyaviy resursga bank kreditlari kiradi. Pul bo'lmasa biznes rivojlanmaydi.

Shuning uchun bank kreditlari kichik biznes subyektlarining moliyaviy ta'minotini mustahkamlab, ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodchi olimlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va bank kreditlari faolligini oshirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Bank kreditlari. Bu kichik biznes uchun asosiy moliyaviy tayanchi hisoblanadi. Chunki bank kreditlari kichik biznesning paydo bo'lishidan to rivojlanishigacha katta tasir qiladi. Jumladan:



1. Boshlang'ich kapital manbai. Ko'pchilik tadbirkorlarning o'z mablag'i yetarli bo'lmaydi. Kredit orqali biznesni boshlash imkoniyati paydo bo'ladi. Kredit bo'lmasa, ko'p bizneslar umuman ochilmaydi.
2. Ishlab chiqarishni kengaytirish. Yangi uskuna va texnika olinadi. Xizmat va mahsulot hajmi oshadi. Bu daromad va foydaning ko'payishiga olib keladi.
3. Yangi ish o'rinlari yaratish. Kredit olgan tadbirkor ishchi yo'llaydi. Aholi bandligi oshadi. Bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.
4. Raqobatbardoshlikni oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi. Mahsulot sifati yaxshilanadi. Kichik biznes bozorda mustahkam o'rin egallaydi.
5. Innovatsiyani rag'batlantiradi. Yangi g'oyalar va loyihalar moliyalashtiriladi. Raqamli texnologiyalar qo'llaniladi.
6. Davlat iqtisodiy siyosatining samarali vositasi. Kreditlar orqali iqtisodiyot faollashadi. Soliq tushumlari oshadi. Davlat ham manfaat ko'radi hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda bank kreditlarini asosiy vosita sifatida ishlatishi kerak.

Ko'plab imtiyozli kreditlar ajratib, foiz stavkalari pastroq, qaytarish muddati uzoqroq. Ba'zan imtiyozli davr (grace period) berilishi. Bu tadbirkorga biznesni oyoqqa qo'yish imkonini beradi.

- Davlat kafilligi (garov muammosini kamaytirish). Tadbirkorda garov yetishmasa,
- Davlat yoki maxsus jamg'armalar kafillik berashi. Kredit olish osonlashadi.
- Subsidiyalar orqali foizlarni qoplanishi. Kredit foizining bir qismi davlat tomonidan to'lab beriladi. Tadbirkor kamroq foiz to'laydi.
- Yoshlar va ayollar uchun maxsus kredit dasturlari. Yoshlar tadbirkorligi, ayollar biznesi, oilaviy tadbirkorlik dasturlari. Ijtimoiy bandlik oshirilishi.
- Davlat banklari orqali ustuvor sohalarni moliyalashtirish.

Masalan: qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish.



Iqtisodiyotning real sektori rivojlanadi.

- Kredit olish jarayonini soddalashtirish. Onlayn ariza topshirish, hujjatlar sonini kamaytirish, tezkor ko'rib chiqish. Byurokratiyani kamaytirish.
- Biznes-reja va maslahat yordami. Banklar va davlat tashkilotlari bepul maslahat va treninglar berilishi. Biznesning muvaffaqiyat ehtimoli oshadi.

Davlat tomonidan bank kreditlari orqali yaratilayotgan imtiyozlar, kafillik va subsidiyalar kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa aholi bandligini oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank kreditlariga berilgan imtiyozlar kichik biznesni qo'llab quvvatlashda davlat uchun ayrim daromadlardan voz kechishiga to'g'ri keladi. Biroq bank kreditlariga berilgan imtiyozlat tufayli, kichik biznes subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirib, ularning investitsion faolligini oshiradi. Natijada, davlat uchun uzoq muddatda bandlik darajasi, soliq tushumlari ko'payib borishi davlat iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiladi.

Muxokama

Iqtisodchi olimlar tomonidan kichik biznesni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotchilar bank kreditlari tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishini ta'kidlaydi. Xorijiy adabiyotlarda esa moliyaviy resurslarga erkin kirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. Keling ularning fikrlari qanchalik to'g'riligini ko'rib chiqaylik.

Mahalliy tadqiqotchilar fikri qanchalik to'g'ri?

Bank kreditlari investitsion faollikni oshiradi. Ha bu juda to'g'ri, ayniqsa iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda bunday bank kreditlari muhim. O'zbekiston ham iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlat hisoblanadi. Bunday davlatlarda ko'plab kichik bizneslar ochiladi.



Sababi: Kichik biznesda o'z mablag'i yetishmaydi, kredit bo'lmasa, uskuna olinmaydi, investitsiya faolligi bevosita kreditga bog'liq

Ya'ni: kredit → investitsiya → ishlab chiqarish → o'sish

Bu fikr amaliy jihatdan juda kuchli.

Xorijiy adabiyotlar fikri qanchalik to'g'ri?

Moliyaviy resurslarga erkin kirish raqobatbardoshlikni oshiradi. Nazariy va strategik jihatdan juda to'g'ri.

Sababi: faqat kredit emas, balki investitsiya, grant, venchur kapital, lizing mavjud

Erkin kirish → texnologiya → innovatsiya → raqobatbardoshlik

Bu fikr uzoq muddatli rivojlanishni tushuntiradi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bank kreditlarining kichik biznes subyektlari investitsion faolligini oshirishdagi roli asosli hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda moliyaviy resurslarga erkin kirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Demak, qisqa muddatda kreditlar muhim bo'lsa, uzoq muddatli barqaror rivojlanishda moliyaviy resurslarga keng kirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan bank kreditlari hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu holat tadbirkorlarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xizmatlar sifatini oshirishiga imkon berdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bank kreditlaridan samarali foydalangan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi va daromad ko'rsatkichlari oshganligi aniqlandi. Biroq, ayrim holatlarda kredit foiz stavkalarining yuqoriligi kichik biznes faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Xulosa va takliflar

Bank krediti iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bank kreditlari faolligi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, bank kreditlari kichik biznesni rivojlantirishda muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Ushbu sohani yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Kichik biznes uchun imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish;
- Kredit foiz stavkalarini pasaytirish;
- Kredit ajratish jarayonlarini soddalashtirish.

Mazkur chora-tadbirlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. Aniq qisqa qilib aytganda imtiyozli kreditlar:

Biznes uchun - tez yordam manbyidir.

Davlat uchun - strategik investitsiya xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, mart 11). *2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida* PF-60-son Farmon.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Kreditlash ko'rsatkichlari bo'yicha statistik axborot. <https://www.cbu.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *Iqtisodiy faoliyat turlari* bo'yicha kichik biznes ko'rsatkichlari. <https://stat.uz>
4. Karimov, A. X., & Ergashev, M. A. (2021). *Bank ishi va moliya*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Ruzmetova, Z. X., & O'rinova, M. R. (2020). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari*. Toshkent: TDYU nashriyoti.



5. Yusupov, B. B. (2023). Kichik biznesni kreditlashda tijorat banklarining roli. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, (3), 45–52.
6. International Monetary Fund. (2023). *Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program (Country Report)*. <https://www.imf.org>
7. Asian Development Bank. (2022). *SME development in Uzbekistan: Challenges and opportunities*. <https://www.adb.org>.

a